

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI.

Naimov Rustam Muzaffarovich

*O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Buxoro viloyat hududiy filiali rahbari [e-mail: naimov@gmail.com](mailto:naimov@gmail.com)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy o'sish sharoitida kambag'allik tushunchasining shakllanishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, kambag'allik darajasini o'lchash mezonlari, uni qisqartirish yuzasidan amaliy taklif ishlab chiqilgan. Kambag'allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarida va aholining turmush tarzida ifodalanib, ijtimoiy masala sifatida deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon bo'lishi o'rganilgan, uni qisqartirish mexanizmlarini boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, kambag'allik, kambag'allik darajasini o'lchash, inson kamoloti indeksi, turmush tarzi, kambag'allikni aniqlash konsepsiyalari, aholi farovonligi.

Аннотация: В данной статье разработаны формирование понятия бедности в условиях экономического роста, ее социально-экономические последствия, критерии измерения уровня бедности и практические предложения по ее снижению. Уровень бедности выражается в производственных возможностях страны и образе жизни населения, изучено, что она проявляется как социальная проблема практически во всех экономических системах, разработаны предложения по управлению механизмами ее снижения.

Ключевые слова: экономический рост, бедность, измерение уровня бедности, индекс зрелости человека, образ жизни, концепции определения бедности, благосостояние населения.

Abstract: In this article, the formation of the concept of poverty in the conditions of economic growth, its socio-economic consequences, criteria for measuring the level of poverty, and a practical proposal for reducing it have been developed. The level of poverty is expressed in the production capabilities of the country and the lifestyle of the population, and it is studied that it manifests itself as a social issue in almost all economic systems, proposals for managing the mechanisms of its reduction have been developed.

Key words: economic growth, poverty, measurement of poverty level, human development index, lifestyle, poverty definition concepts, population welfare.

Mehnat bozorida raqobatga dosh berolmaslik, boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar, ta'lim tizimidagi salbiy holatlar va hududlarda tibbiyot sifatining pastligi kambag'allikka yetaklovchi asosiy sabablardir. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida: milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2026 yilgacha bosqichma-bosqich 6 foizgacha pasaytirish belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni hal etishda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, resurslardan unumli foydalanishga ta'sir etuvchi omillar asosida aholi turmush sifatini yaxshilash, kambag'allikni kamatirish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. "Iqtisodiy o'sish jamiyat taraqqiyoti yo'lini, uning rivojlanish darajasini belgilaydi. Iqtisodiy o'sish, birinchi navbatda tovar va xizmatlar miqdorining o'sishi va o'zgarishida o'z ifodasini topadi. Keng ma'noda esa, jamiyatda iqtisodiy o'sish natijasida takror ishlab chiqarish ortadi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi. Eng asosiysi, aholi turmush darajasi moddiy jihatdan yaxshilanadi va farovonligi ortadi. Jamiyat rivojlanib borishi bilan iqtisodiy o'sish masalasini o'rganishga bag'ishlangan nazariyalar va qarashlar ham o'zgarib, rivojlanib bordi. Shuningdek, ularni o'rganish obyektlari ham tadjriiy tarzda o'zgarib borganligini ta'kidlash lozim. Dastlabki qarashlarda faqat uning miqdoriy jihatlari va ular bilan bog'liq omillar tadqiq etilgan bo'lsa, keyinroq, ularning samaradorligiga e'tibor qaratildi va bu cheklangan resurslardan samarali foydalanishni o'z ichiga olganligi bilan asoslanadi" [2,7]. Hozirda kambag'allik butun dunyoda nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy va madaniy muammodir. Jamiyatda daromadlarning yuqori tabaqalanishi tufayli salbiy oqibatlar yuzaga keladi, kelajakda bu qaytarib bo'lmaydigan holatlarga olib keladi. Qashshoqlik hozirgi davrning eng jiddiy muammolaridan biri bo'lib, mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, aholining turli xil tovarlarni iste'mol qilish imkoniyatini cheklaydi. Qashshoqlikka barham berish asosiy global muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoning manzilli yechimini topish uchun Jahon banki, UNICEF, EPN, CARE, HOPE, Concern worldwide, OXFAM kabi bir necha o'nlab jahon tashkilotlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ular dunyo hamjamiyatida kambag'allikka qarshi kurshish loyihalarini amalga oshirib, davlatlarga ijtimoiy hamda iqtisodiy yordam berib kelmoqda. Jahon banking ma'lumot berishicha, bugungi kunda dunyo bo'ylab qariyb 700 million kishi o'ta qashshoqlikda yashab, kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan

kun kechirmoqda. Qashshoqlikning o'nlab yillar davom etgan qisqarishidan so'ng, bir-biriga o'xshash zarbalar va inqirozlar davri 2020 va 2022 yillar oralig'ida taxminan uch yillik yutuqlarni yo'qotdi. Hozirgi taraqqiyot sur'atlarida dunyo 2030 yilga borib o'ta qashshoqlikka barham berish global maqsadiga erisha olmaydi, hisob-kitoblarga ko'ra, o'sha paytda ham 600 millionga yaqin odam o'ta qashshoqlik bilan kurashmoqda⁵. Qashshoqlikning ta'sirini eng zaif qatlamlar his qiladi. Yaqinda Jahon Banki - UNICEF hisobotida aytilishicha, bolalar o'ta qashshoqlikda yashash ehtimoli kattalarga qaraganda ikki baravar ko'p. Ular o'ta qashshoqlikda yashayotganlarning yarmidan ko'pini tashkil qiladi, ammo ularning umumiy aholidagi ulushi atigi 31 foizni tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyo aholisining deyarli 10 foizi mutloq qashshoqlikda shuningdek dunyo aholisining 22 foizini tashkil qiluvchi 107 ta rivojlanayotgan mamlakatda 1,3 milliard kishi ko'p qirrali qashshoqlikda yashaydi. Haddan tashqari qashshoqlik eng kam rivojlangan mamlakatlarda, mojarolardan jabr ko'rgan hududlarda va chekka qishloqlarda, uni yo'q qilish qiyin bo'lgan joylarda to'plangan. Dunyo aholisining qariyb 50 foizi kuniga 6,85 dollardan kam daromadga ega bo'lganlar uchun ham prognoz ayanchli⁶.

O'zbekistonda aholining 14,1 foizi kambag'allikda kun kechirmoqda. Bu jami aholining (36 million kishi) 5 milliondan ortig'i tashkil etadi⁷. Ushbu muammoning manzilli yechimini topish maqsadida juda ko'plab ustuvor yo'nalishlar belgilanib, islohotlar olib borilayotganligiga qaramasdan, bajarilayotgan ishlar kutilayotgandek natija bermayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, uni tahlil qilish va tajribadan o'tgan siyosat mexanizmlarini amalda joriy etish muhim hisoblanadi. Samaradorlik kutilganidek emasligini inobatga olib, kamba'g'allikni qisqartirish ishlari bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun ilmiy asoslangan uslubiyotni takomillashtirish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora tadbirlari to'grisida"gi PF-5975-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli⁸, "Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "Qishloq tadbirkorligini rivojlantirish-2-faza" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-29-sonli, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor

⁵ <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty>

⁶ <https://data.worldbank.org/topic/11>

⁷ O'zbekiston Respublikasi bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

yo'nalishlaritog'risida"gi PF-29-sonli farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini taashkil etish to'g'risida" gi PQ-4653-sonli, 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4417-sonli, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31, "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora – tadbirlari to'g'risida" PQ-195-sonli, "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirto'g'risidagi"gi PQ-4862-sonli⁹ qaror va boshqa me'yoriy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuchquvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir" [3]. "Kambag'allik – har bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning yashashi, mehnat qobiliyatini saqlashi, avlodni davom ettirishi uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlar ma'lum doirasini qanoatlantirmaydigan iqtisodiy holatning tavsifidir. Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanadi va mazkur jamiyatda turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. U oilani boqish va kiyintirish, maktabda o'qish yoki kasalxonada davolanish, o'z yerida iste'mol mahsulotlarini yetishtirish yoki yashash imkonini beradigan daromad topadigan ishga ega bo'lish, shuningdek, kreditlarni olish huquqi imkoniyatlarining yo'qligida namoyon bo'ladi"[4]. O'zbekiston Respublikasi uchun qashshoqlik chizig'i – kuniga 3,2 dollardan kam pulga yashash degani, misol uchun besh kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollar yoki 4,6 million so'mdan kam bo'lsa, bu oilani kambag'al deb hisoblash mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda 46 turdagi mahsulot va birlamchi xizmatlar kiritilgan iste'mol savatchasi 650 ming so'm, hayot kechirishning eng quyi darajasi 810 ming so'm atrofida hisoblab chiqilgan" [5]. Biroq, iste'mol savatchasi yosh, jins, mavsumiylik nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek bu borada asosiy diqqate'tiborni quyidagi strategik yo'nalishlarga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman [6]. Birinchidan, iqtisodiyotimizda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy valyutamizni yanada mustahkamlashni ta'minlash. Ikkinchidan, mamlakatimiz xududlarini, ya'ni shahar, tuman va mahallalarni, ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda nisbatan orqada

⁹ <https://lex.uz/ru/docs/-6143286?otherlang=1>

qolayotgan tuman va shaharlarni kompleks va jadal rivojlantirish. Uchinchidan, aholining real daromadlarini, turmush darajasi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bugun O'zbekistonlik olimlardan Ahmedov T.M., Sanaqulova B.R., Hamidov B., Xasanov R.R., Mustafoulov SH.I. o'z ilmi ishlarida kambag'allik muammosi yechimlariga qaratilgan. Kambag'allik muammosini xorij olimlari ham o'rgangan. Jumladan Mark Milstein, Esuna Dugarova, Nemis olimi Robert Lepenies, Emmet Jolly¹⁰, Challes Booth¹¹, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan M.V.Beloshapkina, T.Y.Ignatok, T.y.Nazarova, Y.L.rjanitsina, Y.Y.Rumyantseva, T.N.Savina, N.Y.Tixonovlar ilmiy ishlari kamba'allik tushunchasi ta'rifi, turlari, uning kelib chiqish sabablari, aniqlash uslublari va qisqartirish yo'llarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Aholi kambag'allashuviga ta'sir qiluvchi omillar:

- asosan qishloq joylarda aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi va natijada mehnat bozorida raqobatga dosh berolmasligi;
- ta'lim tizimidagi salbiy natijalar va hududlarda tibbiyot sifatining pastligi;
- aholining ba'zi qatlamlarida boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlarda ortiqcha sarf-xarajatlarning mavjudligi;
- ayrim hududlarda ishsizlikning yuqori darajada ekanligi, yangi ish o'rinlari tashkil etilishining faqat qog'ozdagina mavjudligi daromad kamligi va yashash darajasining pasayishiga olib kelgan.

Agar mazkur ko'rsatkichlarning aksi yuz bersa, ya'ni ishlab chiqarish rivojlansa, bilim va malaka, bandlikni ta'minlash, mehnat bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari oshsa, o'z-o'zidan moddiy o'sish ham yuqorilashi kuzatiladi. Kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari – makroiqtisodiy tizimning iqtisodiy vositasi hisoblanib, bunda maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan aniq dastaklar, chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyotini, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari me'yoriy asoslarini ishlab chiqish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni ifodalaydi. Mexanizm kambag'allik va daromadlarning tabaqalashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlaydi va ularni amalga oshirishning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish usullari majmuasidan tashkil topadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish,

¹⁰ The Impact of P The Impact of Poverty on Elementary Academic Achievement in One Rural Elementary School in Missouri Seth Allen Huddleston Lindenwood University

¹¹ <http://www.girlchildconcerns.org/>, <https://www.nyas.org/magazines/17-goals-to-preserve-and-cherish-the-pale-blue-dot/scientists-step-into-new-roles-to-end-poverty/>, TOPICS IN MEASUREMENT: MULTIDIMENSIONAL POVERTY AND POLARIZATION

moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" [7].

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini aniqlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Tadqiqotlarga asoslanib, bu mexanizmni boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: hududlarda kambag'allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish tadbiriq etish orqali tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash asosida iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo'nalishlari vazifalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash, ijtimoy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun manzilli dasturlarni ishlab chiqish iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish va aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
2. Madrahimov U.A. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sifatini oshirish yo'llari. I.f.d.avtoreferati. Toshkent. 2017 y. - 17 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)
4. Руководство по измерению бедности. ЕЭК, ООН, Нью-Йорк-Женева, 2017 г. с.4.
5. Jumayev N. Koronavirus ortidagi iqtisodiy muammolar, kambag'allik, oshayotgan tashqi qarz va YeOII. 16.04.2020.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 156 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
51. Алимова, Ш. А., & Шадиев, А. Х. (2025). РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ЗА 2021–2024 ГОДЫ. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 245-252.
52. Алимова, Ш. А., & Шадиев, А. Х. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ДАННЫХ И

ПЕРСПЕКТИВЫ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 205-211.

53. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). БЮДЖЕТНЫЙ ДЕФИЦИТ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДОЛГ: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 142-149.

54. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАН: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 86-92.

55. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). OZBEKISTONDA INNOVASION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH STRATEGIYASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 36-45.

56. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). INNOVATSION FAOLIYATNI QO 'LLAB-QUVVATLASHNING YEVIROPA MAMLAKATLARI TAJRIBALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(5), 35-44.

57. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDAGI IJTIMOY VA IQTISODIY HOLAT, HUDUDDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(5), 23-30.

58. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). ISPANIYADA INNOVATSIYALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASH SOHASIDAGI ILG 'OR TAJRIBALAR. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 24-35.

59. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INNOVATSION FAOLIGINI OSHIRISH MINTAQANI IJTIMOY VA IQTISODIY YUKSALTIRISH GAROVI SIFATIDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 46-54.

60. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). INNOVATSIYALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILY TUZILMALARI: INFRATUZILMAVIY TASHKILOTLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(5), 25-34.

61. Azimov, B. F., Maksudovich, A. Z., & Quدراتova, G. M. (2025). INNOVATIVE ACTIVITY AS A FACTOR IN ECONOMIC DEVELOPMENT. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 453-459.

62. Sodiqova, N. T., & Bobojonova, M. J. (2025). MAMALAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALAQARO TURIZIM O'RNINING IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(5), 66-75.

63. Sodiqova, N. T., & Xalilov, B. B. (2025). PUL-KREDIT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING USUL VA MEXANIZMLARI (INFLYATSION TARGETLASH REJIMIGA O 'TISHNING AHAMIYATI). *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(5), 87-96.

64. Sodiqova, N. T., & Bobojonova, M. J. (2025). YIRIK KORXONALARDA INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 127-137.
65. Sodiqova, N. T., & Khalilov, B. B. (2025). SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: TOURISM'S CONTRIBUTION TO A SUSTAINABLE FUTURE AND SUPPORTING TOURISM INDUSTRY BY THE TOOLS OF MARKETING. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(5), 87-97.
66. Sodiqova, N. T., & Bobojonova, M. J. (2025). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR SIFATINI BAHOLASH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(5), 109-120.
67. Sodiqova, N. T., & Bobojonova, M. J. (2025). MEHNAT UNUMDORLIGINI TAHLIL QILISHNING NAZARIY MUAMMOLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 55-67.
68. Sodiqova, N. T., & Bobojonova, M. J. (2025). MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATINING O'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(5), 106-115.
69. Sodiqova, N. T., & Khalilov, B. B. (2025). MARKETING–THE TASKS AT A GLANCE. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(5), 76-85.
70. Sodiqova, N. T., & Xalilov, B. B. (2025). KORXONA FOYDASINING TAQSIMLANISHI VA ISHLATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(5), 55-65.
71. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH DARAJASI VA UNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(5), 172-181.
72. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORTCHI KORXONALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH USULLARI VA VOSITALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 213-224.
73. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT QILUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINING NAZARIY TAHLILI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 137-148.
74. Hakimovich, T. M. (2025). STRATEGIYA–HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OBYEKTI SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 276-283.
75. Hakimovich, T. M. (2025). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 224-233.
76. Bahodirovich, X. B. (2025). ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING IN FINANCIAL REPORTING PROCEDURE IN UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 151-157.

77. Bakhodirovich, K. B. (2023). *CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. IMRAS, 6 (6), 161–165.*

78. Bahodirovich, K. B., & Mahmudovna, Q. G. (2025). TYPES OF CREDIT PRODUCTS. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(3), 269-277.*

79. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje., 51, 258-266.*

80. EI, I. (2024). MAKROIQTISODIY KO ‘RSATKICHLARNNG O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 275-281.*

81. Raxmonqulova, N., & Muxammedov, T. (2025). HUDUDNING STRATEGIK IJTIMOY-IQTISODIY SIYOSATINI BAHOLASH: METODOLOGIK YONDASHUV. *Modern Science and Research, 4(1), 918-921.*

82. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education, 2(1), 15-21.*

83. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING XALQARO BOZORDA MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH USULLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education, 2(1), 8-14.*

84. Raxmonqulova, N. O. (2025). KORXONALARDA YUZAGA KELADIGAN INQIROZ HOLATLARI VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education, 2(1), 1-7.*

85. Abdivayitovna, S. U., & Azimov, B. F. (2025). IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING MATERIAL AND TECHNICAL RESOURCES IN ENTERPRISES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 223-228.*

86. Akbarovna, N. N. (2025). BYUDJET TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(5), 80-86.*

87. Akbarovna, N. N. (2025). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(1), 242-249.*

88. Akbarovna, N. N. (2025). MENEJER FAOLIYATINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA UNING MADANIYATINING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 354-362.*

89. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O‘ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 72-77.*

90. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS, 6(6), 118-124.*

91. Bustonovna, J. Z. (2024). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR O'SISHIDA SANOAT TARMOQLARINING AHAMIYATI.
92. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, 2(12), 506-512.
93. Supiyevna, B. M. (2023). TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA PERSONALNI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 409-414.
94. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).
95. Jumayeva, Z. Q. (2025). ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF COMPETITION ASSESSMENT IN THE BANKING SERVICES MARKET OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(1), 41-49.
96. Авезова, Ш. М., & Жумаева, З. К. (2013). МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. *СЕКЦИЯ 1. Економіка і управління національним господарством.....* 9, 12.
97. Примова, А. А., Усманова, Н. Ю., & Жумаева, З. К. (2013). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА. In *ЕКОНОМІКА І УПРАВЛІННЯ: ПРОБЛЕМИ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ* (pp. 199-202).
98. AD, S., & To'rayevich, I. A. (2025). QISHLOQ XO'JALIGINI HUDUDLASHTIRISH VA IXTISOSLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(5), 51-63.
99. AD, S., & To'rayevich, I. A. (2025). QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 34-43.
100. To'rayevich, I. A., & AD, S. (2025). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INVESTITSIYALARNI SOLIQ MEKANIZMLARI ASOSIDA JALB QILISH IMKONIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 44-57.
101. AD, S., & To'rayevich, I. A. (2025). QISHLOQ XO'JALIGINING CHO'L YALOVLARIDA HUDUDLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH TARTIBINI ISHLAB CHIQRISH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(5), 55-67.
102. AD, S., & To'rayevich, I. A. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY MAMLAKATLARDA QISHLOQ XO'JALIGIDA

IXTISOSLASHTIRISHNING AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLARI BILAN TANISHISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 70-81.

103. То'rayevich, I. A., & AD, S. (2025). MILLIY IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(5), 13-24.

104. Sadilloeyvna, D. M. (2025). Prospects for Investments in Modernization of the Economy in the Agricultural Sector. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 217-222.

105. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ ТОЧКИ БЕЗУБЫТОЧНОСТИ И МАРЖИНАЛЬНОЙ ПРИБЫЛИ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 88-94.

106. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ: УПРАВЛЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 81-87.